

OQM2652

“TASDIQLAYMAN”
Gidrometeorologiya xizmati agentligi
direktori



Sh.Khabibullayev

OQM2652

Gidrometeorologiya xizmati agentligi Markaziy apparat
yig‘ilishining 14-son
B A Y O N I

2026-yil 6-aprel

Toshkent shahri

Raislik qildi: Sh.Khabibullayev – O‘zgidromet direktori.

Qatnashdilar: Direktor maslahatchilari, markaziy apparatning boshqarma, bo‘lim boshliqlari va mas‘ul xodimlari, Meteoinfokom, Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti (ro‘yxat bo‘yicha),

KUN TARTIBI:

1. Qozog‘iston Respublikasi Astana shahrida 2026-yilning 22–24-aprel kunlari bo‘lib o‘tadigan Mintaqaviy ekologik sammit 2026 hamda 2026-yil 31-may – 6-iyun kunlari Samarqand shahrida Global ekologik jamg‘armasining 8-assambleyasi va “Eco Expo Central Asia 2026” xalqaro ko‘rgazmasida ishtirok etish bo‘yicha puxta tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish: Agentlik tizimida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlar o‘rtasida xizmat odobi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish to‘g‘risida.

3. Ijro-intizomi, murojaatlar bilan ishlash, tizim ishchi-xodimlarining shaxsiy mas‘uliyati va boshqa amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar to‘g‘risida.

(Sh.Khabibullayev... Sh.Khabibullayev)

Yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan 2026-yilning aprel oyida “app.ijro.uz” tizimida nazoratga olingan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish hamda bayonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlaridagi topshiriqlar ijrosini samarali tashkil qilish masalalari muhokama qilindi.

Yig‘ilish davomida, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ko‘rib chiqildi, mazkur yo‘nalishda

OQM2652

xodimlarga tushuntirish ishlari olib borildi hamda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish zarurligi bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi **K. Baxromov** "Ijro.gov.uz" tizimida **aprel oyida** bajarilishi belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida nazoratni kuchaytirsin hamda **aprel oyi** davomida belgilangan topshiriqlarni sifatli ta'minlash uchun barcha mas'ullarga ogohlantirish bersin.

2. Samarqand shahrida "Eco Expo Central Asia 2026" xalqaro ko'rgazmasini o'tkazish munosabati bilan Agentlikning mazkur tadbirda munosib ishtirokini ta'minlash maqsadida Bosh hisobchi **E. Toshqulov** hamda Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi **N. Tashxodjayeva** zimmasiga birgalikda ko'rgazma doirasida foydalanish uchun zarur bo'lgan banner va stendlarni belgilangan tartibda xarid qilish, ularni tegishli joylarga o'rnatish hamda ushbu jarayonni sifatli tashkil etish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

2.1 Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi **N. Tashxodjayeva** tomonidan mazkur ko'rgazma jarayonlarini keng yoritish, tayyorlanayotgan va o'tkazilayotgan tadbirlar haqida materiallarni Agentlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida muntazam ravishda joylashtirib borish ta'minlansin.

3. Samarqand shahrida "Eco Expo Central Asia 2026" xalqaro ko'rgazmasida Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti (**D. Turg'unov**) hamda Toshkent gidrometeorologiya texnikumi (**E. Daulatov**)ning munosib ishtirokini ta'minlash maqsadida mazkur tashkilotlar tomonidan ko'rgazmada namoyish etiladigan materiallar, taqdimotlar hamda takliflar puxta ishlab chiqilsin va belgilangan tartibda Agentlik rahbariyatiga taqdim etilishi ta'minlansin.

4. Xorijiy tajribani o'rganish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i **Sh. Qodirov** zimmasiga Qozog'iston Respublikasi Astana shahrida 2026-yil 22–24-aprel kunlari bo'lib o'tadigan Mintaqaviy ekologik sammitda Agentlikning munosib ishtirokini ta'minlash maqsadida tashkiliy va amaliy masalalari bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

Shuningdek, Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi **N. Tashxodjayeva** tomonidan mazkur sammit jarayonlarini Agentlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritish, jumladan jonli efirlar tashkil etish orqali tezkor va to'liq axborot berib borish maqsadida tegishli xodimlar ishtiroki ta'minlansin.

5. Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof muhit sifati monitoringi boshqarmasi boshlig'i **A. Mavliyanov** zimmasiga hududiy gidrometeorologiya markazlari stansiya boshliqlarining bilim, malaka, ko'nikma hamda amaliy tajribalarini yanada oshirish maqsadida ularning Agentlik markaziy apparatiga xizmat safarlarini belgilangan tartibda tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

Shu bilan birga, Agentlik markaziy apparatining barcha boshqarma hamda mustaqil bo'lim boshliqlari mazkur tajriba almashish jarayonida faol ishtirok etishi, stansiya boshliqlariga o'z yo'nalishlari bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatishi hamda ilg'or tajribalarni yetkazishi ta'minlansin.

6. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i **G. Unorovaga 3 kun muddatda** Toshkent gidrometeorologiya texnikumida yaratilayotgan keng imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida Agentlik tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xodimlar ro'yxatini shakllantirib, rahbariyatga taqdim etsin.

Shuningdek, mazkur toifadagi xodimlarga o'z bilim va malakasini oshirish, jumladan tegishli ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish zarurligi yuzasidan belgilangan tartibda ogohlantirish bersin.

7. Meteoinfokom DM direktori **F. Boltaboevga** agentlik xodimlarining malaka va kasbiy tajribalarini muntazam oshirib borish, ushbu jarayonni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida alohida yagona elektron pochta manzilini tashkil etish yuklansin.

Mazkur elektron pochta orqali xodimlarning o'qish, malaka oshirish, qayta tayyorlash bo'yicha takliflari, arizalari hamda savollari qabul qilinishi va ularni ko'rib chiqish tartibi yo'lga qo'yilsin. Tashkil etilgan elektron pochta manzilidan foydalanish hamda murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti hamda Toshkent gidrometeorologiya texnikumiga tegishli tartibda ruxsat berilsin.

8. Agentlikka xorijiy davlatlardan bakalavriat, magistratura va undan yuqori bosqichlarda tahsil olish bo'yicha kelib tushayotgan takliflarni agentlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borish, murojaatlar uchun tashkil etilgan yagona elektron pochta manzilini ko'rsatib o'tish hamda e'lon qilinayotgan axborotlarning to'liqligi, ishonchliligi va o'z vaqtida yangilanib borilishini ta'minlash vazifalari Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi **N. Tashxodjayeva** zimmasiga yuklansin.

9. Ushbu yig'ilish qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.